

"Navoiyazot" Ajga Fitch Ratings xalqaro reyting agentligi tomonidan davlat suvereniteti darajasidagi BB- (barqaror) xalqaro kredit reytingi taqdim etildi

// 01.11.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/navoiyazot-azhga-halqaro-reyting-agentligi-tomonidan-davlat->



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 27-oktabrdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6096-son Farmoni ijrosini ta'minlash, "O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalarining investitsion jozibadorligini yangi darajaga olib chiqish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatini barqarorlashtirish, mineral resurslarni chuqur qayta ishlash bo'yicha yangi quvvatlarni barpo etishga qaratilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali tarmoqni yanada rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan yuqori qo'shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida nufuzli xalqaro reyting agentliklari bilan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

"O'zkimyosanoat" AJ hamda Fitch Ratings xalqaro reyting agentligi bilan olib borilgan muzokaralar natijasida "Navoiyazot" Ajga davlat suvereniteti darajasidagi BB- (barqaror) xalqaro kredit reytingi taqdim etildi.

Ma'lumot o'rnida: Fitch Ratings Inc. — dunyodagi eng yirik xalqaro reyting agentliklaridan biri. Jahon kredit bozorlarini mustaqil va istiqbolli kredit baholashlari, tadqiqotlari va ma'lumotlari bilan ta'minlashga ixtisoslashgan.

"Navoiyazot" AJ uchun xalqaro kredit reytingi taqdim etilishi bir qator afzalliklarni yaratadi, xususan:

Potensial investorlarda korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlariga ijobiy munosabat va ishonch hosil qilib, xalqaro moliyaviy instrumentlardan samarali foydalangan holda tashqi va ichki moliya bozorlaridan resurslarni jalb qilish imkoniyati kengayadi. Bunda to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari, xalqaro moliyaviy institutlaridan qo'shimcha ta'minotlarsiz (davlat kafolati, bank va xorijiy hamkorlar kafolati), arzon kredit resurslarini jalb qilish va ularni jalb qilish mexanizmi yengillashadi;

"O'zkimyosanoat" AJ hamda tarmoq korxonalarining qimmatli qog'ozlarini (aksiya, yevrobond, depozitar qimmatli qog'oz, obligatsiyalar) xalqaro birjalarda joylashtirish hamda sotish imkoniyatini beradi. Bu borada hozirgi vaqtda dunyoning nufuzli moliyaviy institutlari bo'lgan J.P.Morgan hamda Citibank kompaniyalari bilan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati